

## OLG‘I (FRITILLARIA SEWERZOWII REGEL) O‘SIMLIGINING BIOEKOLOGIYASI VA XALQ XO‘JALIGIDA AHAMIYATI

**Navro‘za Kabulova Marxamiddin qizi**

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti Magistranti

E-mail: [kabulovanavruza19@gmail.com](mailto:kabulovanavruza19@gmail.com)

**Annotatsiya:** Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) turining umumiy xususiyatlari, tarqalishi hamda tibbiyotdagi o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Liliaceae oilasi, *Fritillaria* turkumi, flora, *Fritillaria severtsova* turi, kaudeks ildiz, alkaloidlar.

### KIRISH

Jaxonda dorivor o‘simliklar turlarini aniqlash, biologik xususiyatlarini o‘rganish va farmasevtik istiqbollarini o‘rganish, baxolash, tabiiy va antropogen omillar tasirida dorivor o‘simlik turlarining zaxiralarini kamayib ketish sabablarini aniqlash, ularni saqlab qolish va ko‘paytirish yo‘llarini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ham ushbu soxada keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi PQ 4670-sonli “Yovvoyi xolda o‘svuvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy xolda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari tog‘risidagi, qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, shuningdek dorivor o‘simlik turlarini ko‘paytirish, tabiiy resurslarni baxolash va xomashyolari asosida tabiiy dori vositalarini ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratilmoqda.

*Fritillaria* (umumiy lotincha nomi *fritillus*) turkumi Liliadoshlar (*Liliaceae*) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simliklarni o‘z ichiga oladi. Shimoliy yarim sharning

mo‘tadil iqlim mintaqasida bir 150 turi yovvoyi holda o‘sishi aniqlangan. Ba’zi turlari Sharqiy Osiyo o‘rmonlarida, ko‘plari G‘arbiy Osiyoda uchraydi. Rossiyaning Yevropa qismida *Fritillaria* turkumining 3 ta yovvoyi vakili tarqalgan. Masalan (*Fritillaria orientalis* Adams) va *Fritillaria meleagres* L) turi: ulardan eng keng tarqalgani turlaridir.

### Klassifikatsiyasi

Tur - species - Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel)

Turkum- Genus -*Fritillaria*;

Oila - Family- Liliadoshlar- Liliaceae ;

Sinf- clases- ( Bir urug pallalilar).

Bo‘lim - Divisio- Angiospermae( yopiq uruglilar) larga mansub o‘simlik hisoblanadi.

Umumiy tuzilishi: Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligining balandligi 20-50 sm, ba‘zam 70 sm gacha yetadi. Tuxumsimon shakldagi piyozboshining diametri o‘rtacha 5 smni tashkil qiladi. Barglari etli va o‘simlik poyasining tagida halqa hosil qilib joylashgan va uzunligi 15 sm gacha va poya bo‘ylab bir tekis taqsimlanadi. O‘simlik poyadagi barg o‘qlaridan kelib chiqadigan uzunligi 3 sm bo‘lgan binafsha-ji garrang yulduz shaklidagi alohida gullarni hosil qiladi, ularning soni 4 tadan 10 tagacha yetadi. Gullar pastga qarab egilib o‘sgan va ikki xil bo‘lib pastki qismidagi gullari ikki jinsli yuqori qismidagi gullari esa bir jinsli ya’ni changchili gullardan iborat. Urulchilari uch uyali bo‘ladi, mevasining diametri 3-5 sm olti qanotli kosa shaklida va uyachalarga ochiladi. Urug‘lar mayda va tekis shaklida.





Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligining guli



Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligining urug‘i



Kaudeks ildiz

O‘simlik mart oyining boshida gullaydi. Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) birinchi marta 1868 yilda Regel tomonidan tasvirlangan. Beyker esa 1874 -yili ushbu oilaga kiruvchi o‘simliklarni kichik turkumlarga ajratgan. Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligini Korolkovia kichik turkumiga yagona tur sifatida kiritgan. Garchi ba’zi olimlar Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligini alohida turkum sifatida

ko‘rishgan bo‘lsa-da, molekulyar filogenetika uning *Fritillaria* turkumiga mansub ekanligini ko‘rsatdi. Ekologiyasi va tarqalishi: Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligi O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Tyan-Shanning g‘arbida, Pomir-Oloyning shimolida tog‘ etaklarida, gil va tosh yon bag‘irlarida uchratish mumkin. Shuningdek, 1000–3000 metr balandlikdagi Qirg‘iziston va O‘zbekistonning qoyali yonbag‘irlarida yoki o‘rmonli hududlarida, butazorlarda uchraydi. O‘simligi qishga chidamli - 30°C (-34.4) dan to 20°C gacha o‘sinh qobilyatiga ega lekin quruq va qattiq tuproqni talab qiladi.

### XULOSA

Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligining piyozining ta‘mi juda achchiq, O‘zbekistonda ular ba‘zan non bilan oziq-ovqat sifatida ishlatiladi. Ular markaziy asab tizimiga va yurakka ta‘sir qiluvchi alkaloidlarni o‘z ichiga oladi. Xalq tabobatida diaforetik sifatida ishlatiladi. O‘simlikning turli qismlaridan 20 dan ortiq alkaloidlar ajratilgan, aminokislotalardan esa eng ko‘p uchraydigan alginindir. Olg‘i (*Fritillaria sewerzowii* Regel) o‘simligi tibbiyot uchun qimmatbaho o‘simlik bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari qizil kitobga kiritilganligi uning florasini ko‘paytirish kerakligining dalili hisoblanadi. Ushbu o‘simlikni bioekologiyasini hamda geografiasini o‘rganish uni ma‘daniy shakilda ko‘paytirish uchun asos bo‘la oladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Vvedenskiy A.I.Rod 154 (5). Korolkoviya - Korolkoviya Rgl. // Tojikiston SSR florasini / Ch. tahrir. P. N. Ovchinnikov(П. Н. Овчинников). - M.-L.: Изд-во АН СССР Fanlar akademiyasining nashriyoti, 1963. - Т. II. Sedge - orkide. - S. 239-240. - 1300 nusxa.
- 2.Loza-Lozinskaya A. S. Genus 269. Korolkovia - Korolkovia Rgl. (Род 269. Корольковия — Korolkovia Rgl.)// SSSR florasini( Флора СССР): 30 jildda / ch. tahrir. V.L.Komarov. (В. Л. Комаров) - L.: SSSR Fanlar akademiyasining nashriyoti, 1935. - Т. 4 / ed. V. L. Komarovning jildlari. - S. 295-296. - 760, XXX p. - 5175 nusxaИзд-во АН СССР

3. M.I. Ikromov, X.N. Normurodov, A.S.Yuldashov "Botanika( o‘simliklar marfalogiyasi va anatomiyasi.)". " O‘zbekiston" nashriyoti, 2002- yil.ISBN 5-640-02837. 224-225- betlar.

4.Loizina-Lozinskaya A.S. Ryabchik - Fritillariya // SSSR florası / SSSR Fanlar akademiyasining Botanika instituti; To‘rtinchi jildning bosh muharriri va muharriri Akad. V.L.Komarov. - L.: SSSR Fanlar akademiyasining nashriyoti, 1935. - T. IV. - S. 302-320.

**Foydalanilgan sayt nomi.**

<https://worldoffloweringplants.com/World><https://www.facebook.com/floweringplantsworld/><https://www.facebook.com/floweringplantsworld/>